

DARS №9





Медиа сабак

MAVZU:

KONTENT

Kontent – mazmun, tarkib deb
tarjima qilinadi; bunga veb-resurs
sahifalaridagi har qanday
ma'lumotlar kiradi.



Kontent – bu internet manbaga joylangan har qanday matnlar, audio va videofayllar, animatsiya, rasmlar va boshqalar. Ya’ni, foydalanuvchi o’qishi, eshitishi va ko’rishi mumkin bo’lgan internetdagi barcha narsalar. Kontent qanday shakllarda bo’lishini ko’rib chiqsak.



Matnli ma'lumot



Bu turdagi kontentni eng keng tarqalgan deyishimiz mumkin, chunki internetdagi aksariyat ma'lumotlar matn ko'rinishida:

- maqolalar
- kitoblar
- tovarlar haqidagi fikrlar
- e'lonlar va boshqalar



Videofayllar


Roliklar, filmlar, taqdimotlar, hikoyalar, video yozuv shaklidagi ma'lumotnomalar
Masalan, hozir siz bizning saytga joylangan videokontentni tomosha qilyabsiz.



Audiofayllar

- musiqa;
- darslar;
- ma'ruzalar;
- audiokitoblar
va boshqalar;





Ehtimol siz allaqachon ijtimoiy tarmoqdagi sahifangizni yuritishni, blog va postlar yozishni va rasmlar joylashni, ya'ni o'z kontentingizni shakllantirishni bilib olgandirsiz.

Kontent qanday yaratilishini bilish orqali, siz endi ko'rgan, o'qigan va eshitgan narsalaringizga tanqidiy yondosha boshlaysiz.

Agar siz video va fotosuratlarni sahnalashtirib olish mumkinligini tushinsangiz, demak barcha ma'lumotlarga tanqidiy qarash va ularning hammasiga ham ishonib bo'lmasligini bilasiz.



Xulosalar:

Biz turli xil manbalardan (televidenie, radio, gazeta va jurnallar) ma'lumot olamiz. Shuningdek, biz video o'yinlar, reklamalar, matnli xabarlar, videolar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ko'p narsalarni tomosha qilamiz.

Axborot dengizida cho'kib ketmaslik uchun uni oqilona iste'mol qilish, tanqid qilish, mualliflarning maqsadlarini tushunish, o'zingizga savollar berish, mas'uliyat bilan media-xabarlarni yaratish kerak.

Media savodxonligi bo'yicha o'quv kursi ushbu ko'nikmalarning barchasini rivojlantirishga yordam beradi.